



The role of outdoor games in the education and harmonious development of the young generation. In the modern system of continuing education

A. IBRAGIMOV¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2021

Received in revised form

15 November 2021

Accepted 20 December 2021

Available online

15 January 2022

Keywords:

Outdoor games,
primary education,
means of aesthetic
education,
aesthetic features,
voice,
facial expressions,
teacher's speech.

ABSTRACT

This article presents the authors' views on the didactic requirements of aesthetic education of younger schoolchildren. By means of outdoor games, And also, the effective application of didactic requirements for their implementation in practical classes is considered.

2181-1415/© 2021 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss11/S-pp323-326>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Uzluksiz ta'lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalashda harakatli o'yinlarning o'rni

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

harakatli o'yinlar,
boshlang'ich ta'lim,
vosita,
estetik tarbiya,
estetik xususiyat,
ovoz,
mimika,
o'qituvchi nutqi.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini harakatli o'yinlar vositasida estetik tarbiyalashning didaktik talablari borasida fikrlar keltirilgan bo'lib, didaktik talablarning amalda samarali qo'llanilishi orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalash yuzasidan takliflar berilgan.

¹ Associate Professor of the Department "Physical Culture" Tashkent State Pedagogical University named after Nizami. Tashkent, Uzbekistan. E-mail: ibragimov@gmail.com.

Роль подвижных игр в образовании и гармоничного развития юного поколения. В современной системе непрерывного образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Подвижные игры, начальное образование, средства эстетического воспитания, эстетические особенности, голос, мимика, речь учителя.

В данной статье, представлены взгляды авторов на дидактические требования эстетического воспитания младших школьников. Посредством, подвижных игр, а также, рассмотрено, эффективное применение дидактических требований по внедрению их на практических занятиях.

Mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishga, bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda, hayotning o'zi oldimizga sog'lom avlodni tarbiyalashdek muhim va yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalash jarayoni ta'lim bosqichlari hamda ta'lim sohalari o'rtasida uzviylik prinsipiga amal qilgan sharoitda samarali kechadi. Qolaversa, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi ham barkamol avlod tarbiyasining muhim shartlaridan biridir. Shu ma'noda, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarning jismoniy sifatlari turlari harakatli o'yinlar yordamida o'quvchilarni estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bunda hech qanday tasodifiy va shoshilinch narsalar bo'lishi mumkin emas.

Harakatli o'yinlar insonni har tomonlama tetik, hushyor qobiliyatli qilib kamolga yetkazadiki, bunda "Go'zallikni anglash tarbiyasi" asosiy o'rinlardan biriga aylanadi. Tabiat qo'ynida yoki ozoda-shinam sport zalida o'quvchilarning harakatli o'yinlar bilan shug'ullanishi, bularning hammasi ularning nafosatini, his-tuyg'usini, aqliy tushunchasini va didini tarbiyalaydi. Shubha yo'qki, xilma-xil, aniq, ifodali bajarilgan harakatli o'yinlar estetik kechinma hislarini yuzaga keltiradi. Harakatli o'yinlarni o'ynash jarayonida harakatlar va maqsadning mazmun jihatidan bir-biriga mos kelishi uning go'zalligini ta'minlaydi. Go'zallik bu, avvalo, harakatlarning sodda, yengil, izchil va tugal bo'lishidirki, o'qituvchi ham, o'quvchi ham bunga intilsalar, nafosatga erishadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakatli o'yinlarning estetik jihatlari o'z-o'zidan rivojlanmaydi, buning uchun o'quvchilarni harakatli o'yinlar bilan doimo tizimli ravishda shug'ullanishiga zarur sharoit yaratish va yoshiga hamda fiziologik imkoniyatlariga mos tushadigan harakatli o'yinlar tanlab olinishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, o'quv dasturda berilgan o'yinlar jumlasiga kiradi. O'quvchilar harakatli o'yinlarni o'ynashi va o'yin jarayonida o'yinning estetik zavqli chiqishi ko'p jihatdan o'yinning to'g'ri tanlab olinishiga bog'liq.

Pedagog o'quvchilarga o'rgatayotgan dasturdagi harakatli o'yinlarni o'zi xohlaganicha o'zgartiraverishi mumkin emas, shuning uchun dasturda belgilangan o'yinlardan foydalanish tanlangan o'yinni o'quvchilar ongida shakllantirish hamda uning go'zalligini his qildirish orqali o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni hosil qilish qat'iy tizimi bo'lishi shart. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar milliy harakatli o'yinlaridagi estetik faoliyatni anglashi bu ularning bir qator sifatlarini shakllantiradi.

Jumladan, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning faolligi, atrofdagi narsalarga juda qiziquvchanligi, sinchkovligi, har bir narsaga ishonishi va taqlid qiluvchanligidan o'qituvchi mohirona foydalansa, yo'naltira bilsa, estetik odatlari tez mustahkamlanib borishiga yordam beradi. O'qituvchining shaxsiy o'rnagi, madaniy xulq-atvori o'quvchilarda estetik ko'nikmalarining to'g'ri shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, chunki o'quvchilar unga astoydil taqlid qiladilar.

O'quvchilar harakatli o'yinlardan turli ko'nikmalarni, shu bilan birga, chiroyli harakatlarni egallab olishlari uchun to'g'ri harakat qilish usullarini bilishi, harakatlarning ahamiyatini, uning go'zalligini va zarurligini tushunishi, keyinchalik esa bu o'yinlar mobaynida uni o'ziga singdira bilishi kerak. Buning uchun pedagog u yoki bu harakatli o'yinlarning estetik usullarini ko'rsatishi, uni o'quvchilarga aniq tushuntirishi, o'yinlardagi go'zallikni ko'rsata bilishi, to'g'ri bajarilishini kuzatib borishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ilk maktab ostonasiga qadam qo'yishar ekan, umumta'lim fanlari sifatida jismoniy tarbiya darslari o'tiladi. Jismoniy tarbiya darslarining asosini esa harakatli o'yinlar tashkil etadi. Darsni boshlanishidan oldin salomlashish va xayrlashishga, so'ngra o'quvchilar buni o'zlashtirganlaridan keyingina ularni rahmat aytishga o'rgatish to'g'ri kelmaganidek, ba'zan zarur bo'lgan taqdirda bir necha qoidalarni bir vaqtning o'zida qo'llanilishiga to'g'ri keladi. Agar ko'p o'quvchilar bu qoidalarni buza boshlasalar, hamma o'quvchilarga uni qanday va nima uchun bajarish kerakligini tushuntirish va jalb etish lozim. Tushuntirish va topshiriq berishdan tashqari ba'zi o'quvchilar oldiga qat'iy talablar ham qo'yish kerak bo'ladi. Qoida bir necha bor takrorlansa ham, o'quvchi o'z joyidan ajrab qolishni istamaydi yoki qiziq o'yindan ketgisi kelmaydi. Ana shunday paytlarda pedagogik mahoratdan foydalanish talab etiladi. O'yin jarayonida esa o'quvchilarni o'yin qoidalariga, undagi estetik talablarga rioya qilishga odatlantirish uchun o'qituvchidan chidam, sabot va qat'iyat, elementli harakatlarga ham e'tibor berish, o'z harakatlarini doimo kuzatib borish ham zarurdir.

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalash borasida dars jarayonini muvafaqqiyatli tashkil etish uchun ularni (milliy harakatli o'yinlarni) rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak ma'naviyatli, estetik didli, axloqli va ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligi ta'kidlanadi. Jumladan, ta'lim va tarbiya ishlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy harakatli o'yinlarning estetik asoslarini anglash ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirish alohida e'tiborni talab etadi. Shu jihatdan olib qaraganda, umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar tizimida o'quvchilarni zamonaviy usullar asosida estetik tarbiyalashda milliy harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etishning yangi uslubiy yondashuvlarini joriy etishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish muammosi ustuvor tarzda qaralishi lozim.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan jismoniy tarbiyadan DTS o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra jismoniy tarbiyani o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsi, uning jismoniy rivojlanishi, intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi. Ammo amaldagi dasturlar bo'yicha tuzilgan o'quv qo'llanmalarda taqdim etilayotgan topshiriqlar har doim ham o'quvchilarni estetik tarbiyalashga mo'ljal-lanmagan.

Shu maqsadda amaldagi dasturning tuzilishi, mazmuniga putur yetkazmagan holda unga o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan asosiy talablarni hisobga olib, dars mazmuniga emotsional yuklama, o'zining estetik mazmuniga ega bo'lgan harakatli o'yinlar, boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash, ularning estetik ehtiyojlarini faollashtiruvchi materiallar kiritildi.

Shuningdek, o'quvchilarni zarur bo'ladigan talablar, tavsiyalar, eslatmalar, milliy harakatli o'yinlar nazariyasi va amaliyotiga estetika bilan bog'liq bo'lgan faoliyatning har xil turlari bo'yicha metodlar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq o'yinlarga qiziqish muammosi asosiy maqsadni chetlab o'tmasligi kerak. O'quvchilarning harakatli o'yinlar orqali estetik tarbiyalash jismoniy tarbiya darslarining tuzilishi, mazmuniga singib ketishi, uning tarkibidan o'rin egallashi, ayni paytda, o'ziga xos nufuziga ega bo'lishi, shu bilan birga, estetik mazmundagi o'yinlar maroqli, emotsional jo'shqinliklarga ega bo'lishi lozim.

Harakatli o'yinlar garmoniyasi ichki ma'naviy go'zallikni yaratadi, bu esa epcillik, harakatlar aniqligi, bu harakatlarni amalga oshirayotganda o'ziga ishonch va, albatta, ko'tarinki kayfiyat ritmida namoyon bo'ladi. U o'quvchilar tomonidan muhim estetik qadriyat sifatida qabul qilinadi va baholanadi.

Harakatli o'yinlar orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalash maqsadga yo'naltirilgan jarayon hisoblanib, shaxsni borliqdagi go'zallikni to'liq qabul qilish va to'g'ri tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. U estetik tasavvurlar, qarashlar, estetik ong va estetik did tizimining ishlab chiqilishini nazarda tutadi. Bir vaqtning o'zida bu jarayon o'quvchilarda hayotiy jarayonda barcha sohalar orqali go'zallik elementlarini kiritish olish qobiliyati va intilishlarini tarbiyalaydi. Estetik tarbiya inson tomonidan faqat birgina san'at sohasi orqali namoyon bo'lishi bilangina chegaralanmaydi, u barcha ijodiy yondashilgan faoliyatda mavjuddir. Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash nafaqat mazmun, balki metodik jihatidan ham rang-barang hamda keng tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

O'quvchilarning o'yindagi xatti-harakatlari – o'quvchilarning bir-biriga estetik jihatdan baho berishi, ularning o'z harakatlarining tushunib olishiga yordam beruvchi imkoniyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулла Шер., Умаров Э., Хусанов Б. Нафосатшунослик (эстетика). – Т.: 2000. – Б. 83–84.
2. Azizova M.A. Estetika (ma'ruza matnlari). – Т.:2006. – Б. 115.
3. Насриддинов Ф.Н., Қосимов А.Ш. Ўзбек халқ миллий ўйинлари. I-тўплам. – Т.: 1998. – Б. 27.
4. Носирхўжаева Г. Этика. Эстетика.Ўқув қўлланма. – Т.: 2006. – Б. 214.
5. Эргашев Р.Н. “Халқ таълими” журнали 3-сон. Тошкент. – 2009. – Б. 65–69.
6. Ҳожимирзаев А.Д. Жисмоний тарбия дарслари ва синфдан ташқари машғулотларда ўқувчиларни эстетик тарбиялаш. Дис. ... пед. фан. ном. – Т.: ТДПУ, 2002. – Б. 169.